

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI HAR BIR INSONNING VAZIFASI

Mamasoliyeva Mubinaxon Xayitbay qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali, filologiya

va tillarni o'qitish: ingliz tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada inson va tabiat o'rtasidagi ozaro bog'liqlikni yoritadi. Atrof-muhit - bu biz nafas oladigan havo, ichadigan suv, foydalanadigan yer va o'simliklar hamda hayvonot dunyosini o'zichiga olgan yagona tizimdir. Inson faoliyati natijasida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar - havo va suv ifloslanishi, chiqindilarning ko'payishi, o'rmonlarning kesilishi, biologik xilma-xillikning kamayishi tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun atrof-muhitni muhofaza qilish har bir insonning fuqarolik burchi va axloqiy mas'uliyatidir. Mavzuda insonlarning ekologik ongini oshirish, yashil turmush tarzini tanlash, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, energiya tejovchi texnologiyalarni qo'llash kabi muhim choralar haqida so'z boradi. Annotatsiyada ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun jamiyatning har bir a'zosi o'z hissasini qo'shishi kerakligi takidlanadi.

Annotation: This topic highlights the interconnection between humans and nature. The environment is a single system that includes the air we breathe, the water we drink, the land we use, as well as plants and animals. Ecological problems arising from human activity, such as air and water pollution, the increase of waste, deforestation, and the reduction of biodiversity, all have a negative impact on nature. Therefore, protecting the environment is the civic duty and moral responsibility of every individual. The topic discusses important measures such as raising ecological awareness, a green lifestyle, reducing and recycling waste, and applying energy-saving technologies.

Аннотация: В данной научной статье освещается взаимосвязь между человеком и природой. Окружающая среда — это единая система, включающая в себя воздух, которым мы дышим, воду, которую пьем, землю, которую используем, а также растительный и животный мир. Экологические проблемы, возникающие в результате человеческой деятельности — загрязнение воздуха и

воды, увеличение количества отходов, вырубка лесов, сокращение биологического разнообразия — оказывают негативное влияние на природу. Поэтому охрана окружающей среды является гражданским долгом и нравственное responsibility такие важные меры, как повышение экологического сознания людей, выбор «зеленого» образа жизни, сокращение и переработка отходов, использование энергосберегающих технологий. В аннотации подчеркивается, что для обеспечения экологической устойчивости каждый член общества должен внести свой вклад.

Kalit sõzlar: Atrof-muhit muhofazasi, inson mas'ulyati, suv ifloslanishi, chiqindilarni saralash, ekologik odatlar.

Keywords: Environmental protection, human responsibility, water pollution, waste sorting, eco-friendly habits.

Atrof-muhit bu - bizning uyimiz. Unda biz nafas olamiz, yashaymiz, mehnat qilamiz va orzu qilamiz. Tabiat bizga bebahohi ne'matlarni - havo, suv, yer, daraxt, hayvon va qushlarni bergen. Lekin afsuski, bugungi kunda tabiatni asrash masalasi juda dolzarb bo'lib qolmoqda. Har kuni chiqindilar, havoning ifloslanishi, daraxtlarning kesilishi va boshqa muammolar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ham har bir inson tabiatni asrashga o'z hissasini qo'shishi kerak. Bugungi kunda ekologik muammolar butun insoniyatni o'ylantirayotgan global masalaga aylangan. Aholi sonining ortishi, sanoatning rivojlanishi, texnologiyalarning keng qollanilishi-bularning barchasi tabiatga bo'lgan bosimni kuchaytirmoqda, Natijada havo, suv va tuproqning ifloslanishi, iqlim o'zgarishlari, biologik xilmallikning kamayishi kabi xavfli holatlar yuzaga kelmoqda. Bu muammolarning oldini olish yoki ularni yumshatishda esa har bir insonning hissasi muhim ahamiyat kasb etadi, atrof-muhitni muhofaza qilish ekologlar emas, balki har bir fuqaroning burchiekanligini anglash va shunga mos harakat qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Yashil hududlarni himoya qilish va ko'paytirish: Daraxtlar va o'simliklar karbonat angidridni yutib, havo sifatini yaxshilaydi. Parklar va o'rmonlarni himoyd qilish va yangi yashil hududlarni yaratish atrof-muhit salomatligi uchun zarurdir.

Suv hayzalarining ifloslanishi ham jiddiy muammolardan biridir. Sanoat chiqindilari, gishloq xo'jaligi pestitsi dlar va maishiy axlatlar daryo va ko'llarga tashlanib, survni ichishga yaroqsiz holga keltirmoqda. Masalan, Hindistondagi Ganga daryosi yoki O'zbekiston hududidagi Amudaryo va Sirdaryo bo'yalarida suv ifloslanishining salbiy oqibatlari kuzatilmogda.

Shuningdek, plastik chiqindilar masalasi ham dolzarbdir. Har yili milliardlab plastik butilkalar, paketlar va boshqa chiqindilar dengiz va okeanlarga tushmoqda. Bu esa suv hayvonlarining nobud bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yurtimizda atrof-muhitga oid chora-tadbirlar korilmoqda bular quyidagilar:

2024-yil oktyabrida O'zbekiston, qattiq chiqindilarni energiyaga aylantirish boyicha \$1,3 milliardlik loyihalarni e'lon qildi. Mazkur loyihalar doirasida yiliga 4,7 million tonna chiqindini qayta ishlash orqali 2,1 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish rejalashtirilgan.

Yashil hududlar va daraxt ekish "Yashil Makon" milliy loyihasi doirasida 2024-yil bahorida 138,1 dona ko'chat ekildi.

O'zbekistonning atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirayotgan chora-tadbirlari, mamlakatning ekologik barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim qadamlardir. Bu tashabbuslar, nafaqat ekologik holatni yaxshilash, balki yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish yo'lida ham muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, atrof-muhitni muhofaza qilish faqat ekologlarning emas, balki har bir insonning burchidir. Har birimiz bu masalaga befarq bo'lmasak, tabiatni asrashni hayotiy prinsipga aylantirsak, nafaqat o'zimiz, balki butun insoniyatning kelajagini himoya qilgan bolamiz. Esda tutaylik: tabiat- bizga emas, biz tabiatga bog'liqmiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Yashil iqtisodiyot;
- 2.Barqaror rivojlanish;

3.Ekologik ongni shakllantirishga bag'ishlangan maqolalar.

